

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSİYALAR VA MOLIYAVIY
RIVOJLANISHNI OLIY MUHANDISLIK MAKTABLARI BILAN
INTEGRATSIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI”

TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 1-avgust–27-sentabr



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 315 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Nosir Mahmudov, i.f.n. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Nasir Mahmudov, I.f.n. Professor of Tashkent State University of Economics

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCEGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Zamonaviy agrotexnologiyalar hosildorlik garovi	15
K.A.Sharipov, V.A.Karimov	
Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish. toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va xorijiy davlatlar tajribasi.....	19
S. M. Mirzaliyev	
Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini oshirish masalalari.....	24
Adilov Mirkomil Miralimovich	
Yoshlar turizmi bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishning nazariy jihatlarini.....	27
Allayor Norboev Ismoilovich	
The importance of risk management to ensuring the stability of commercial banks	30
Abdusalomov Jahangir Oktam ugli	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobining asoslari	33
Abduraxmanov Otabek Patidinovich	
Inson kapitalini boshqarishda inteluktual salohiyatni iqtisodiy bilimlar bilan mustahkamlash dolzarbligi	36
Kurbanbayeva Sevara Marat qizi	
Reducing corruption through tax mechanisms	39
Musayeva K.Y	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlili	42
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
Davlat budjeti xarajatlarining samaradorlik indikatorlaridan samarali foydalanish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari	45
S.M.Xolxo'jayev	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyati tahlili	47
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Issues of greening the economy in ensuring sustainable economic growth.....	51
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
Reducing corruption through tax mechanisms	54
Musayeva K.Y	
Пути повышения конкурентоспособности предприятия	56
Азларова Муштарийбегим Аббор кизи	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish yo'nalishlari	59
S.M. Xolxo'jayev	
Ways to effective management of the public debt.....	62
Olimjon Fattoev	
Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va stavkalari.....	66
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
Передовые методы сбора данных для точных маркетинговых исследований	70
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini qo'llab-quvvatlash	73
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning nazariy asoslari	76
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan doimiy va mavsumiy ishchilar soni orasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish	78
Rustamova Mexrigiyo Muxtor qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat bozorining rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash samaradorligini oshirish yo'llari	83
Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi	
Zamonaviy iqtisodiy davrda "yashil" moliya va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni	86
Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi	
The Impact of Financial Technologies (FinTech) on Economic Growth.....	89
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Post pandemiya davrida jahon turizm bozorida o'zgarishlarning tahlili.....	92
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
Integration of activities with higher engineering schools to provide employment.....	96
Batirov Farkhad Bakitovich	
Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini tashkillashtirish mexanizmlari.....	99
Adizov S.	
Organik mahsulotlar savdosini oshirishda organik mahsulotlar tarqatish kanallarining ahamiyati	102
Xidirov Shohrux Bobur o'g'li	
Понятие макроэкономической стабильности и её элементы.....	105
Салахиддинова Муштарий Абдумуминовна	
Sportchilarning sog'ligi	108
Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi	
Mamlakatimiz iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarining o'rni va uning kelgusi istiqbollari	111
Samariddin Jumaev	
Kichik korxonalarini rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari.....	112
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Значимость внедрения стандартов для улучшения качества обслуживания в туристической индустрии.....	115
Адылова Диёра Улугбековна	
Kimyo sanoati korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish.....	118
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	122
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
Iqtisodiyot va ekologiya muvozanati: barqaror taraqqiyotga yondashuv.....	128
Turdiyeva Iroda Ismoil qizi	
Biznesni moliyalashtirishni manbalarini ko'paytirishni imkoniyatlari.....	131
Adilov Sherzot Shamilevich	
Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishni rivojlantirish.....	134
Qo'chqorov Tohir Safarovich, To'ychiyev Akmaljon Abdulatif o'g'li	
Ta'minot zanjirini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni afzalliklari.....	137
Yuldashev Abdusakim Abdukarimovich	
Environmental protection concept: a link between economic well-being and Environmental Degradation.....	141
Egamberdiev Komron	
O'zbekistonda makroiqtisodiy uyg'unlikka erishishning asoslari.....	144
Abdulla Abduqodirov	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarining ta'sirchanligini oshirish yo'llari (O'zbekiston misolida)	147
Rahmatullayeva Ahdiya Ja'farovna, Ollokulova Feruza Nansurovna	

Hududga xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llari	150
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Olloqulova Feruza Nansurovna	
Xalqaro banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda kredit samaradorligini oshirish yo'llari	153
Abdivaliyev Daler Yusupovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Mintaqalarda sanoat aglomeratsiyalarni shakllanishi bosqichlari nazariyasi	156
Malikov Zuhriddin Vohidovich	
Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	159
Abdukayumov Xumoyunmirzo Giyosbek o'g'li	
Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muammolari va istiqbollari	162
Xasanov Jamshid Abdullayevich	
Strategic pricing on the example of the Marriot hotel	165
Botirova Zumrad Ilhom qizi	
O'zbekiston davlat korxonalari (DK)da moliyaviy samaradorlikni baholash usulini takomillashtirish	168
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Digital transformation and its effect on inclusive economic growth in Uzbekistan	170
Jazira Buranova	
Сколько стоит «Озеленение» производства для компаний текстильной отрасли?.....	173
Носирова Чарос	
Investment challenges and solutions for Uzbekistan's metallurgical enterprises	177
Tatiana Budey	
Mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligining xalqaro tajribasi.....	180
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning xalqaro tajribasi.....	184
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
Tredingda texnik tahlil va savdo jarayonlarini boshqarish	188
To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligi	190
Shamshetova Gulraushan	
Korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	193
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Insofli soliq to'lovchilarni ko'paytirish-soliq ko'rsatkichlarining muhim omili sifatida	196
Abdurasulov Alisher Abdurasulovich	
Анализ инвестиционной привлекательности акционерных обществ на фондовом рынке	200
Юлдуз Усманова	
Analysis of international experiences in the development of small business and private entrepreneurship.....	204
Abdovohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida raqamli strategiyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirishning xalqaro tajribalari	207
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Intellektual mulk huquqlari va ularning global savdoga ta'siri	210
Raxmonova Dildora Ergash qizi	

Mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida innovatsion menyu siyosatini shakllantirish: sog'lom ovqatlanish va mijoz ehtiyojlari integratsiyasi.....	213
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Raqamli xizmatlarda ishonch va xavfsizlik: foydalanuvchi xulqi va huquqiy innovatsiyalar ta'siri.....	217
Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali Qizi	
Sug'urtada bozori infratuzilmasi tashkiliy asoslari	219
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Budjet mablag'lari ustidan moliyaviy nazoratning tuzilishi hamda tarkibi	222
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Sayyohlar uchun qulay transport tizimi – hududiy raqobatbardoshlik omili sifatida	226
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Raqamli turizm xizmatlari va ularni huquqiy tartibga solish mexanizmlari	228
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Buxoro viloyatida eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va agroeksport salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	231
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Improving the insurance market of Uzbekistan based on foreign experience.....	235
Jumaboyev Akmal Sheraliyevich	
Turizm xizmatlari bozorining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari	238
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Проблемные кредиты коммерческих банков: причины и современные методы решения.....	245
Улмасой Хусан кизи Ахмедова	
Eksimbank tashkil etish orqali eksportni yanada faollashtirishning zarurati va istiqbollari.....	248
D.E.Qarshiev	
Tadbirkorlik samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va infratuzilmaning o'rni	251
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urtada andarrayting xizmatini tashkil etish	255
D.E.Qarshiev	
Investitsion jozibadorlik orqali agrar rivojlanishni ta'minlash: o'zbekiston tajribasi	258
S.J. Yangiboev	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari davlat xaridlari: aqsh, buyuk britaniya va yaponiya tajribasi	261
Majidov Nizom Baxramovich	
Qishloq xo'jaligi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari resurslari hisobiga moliyalashtirish istiqbollari	264
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalar jalb etish tajribasi	268
Otaxanov Rasulbek Marks o'g'li	
Деятельность международных финансово-кредитных организаций и перспективы развития сотрудничества с Республикой Узбекистан	272
Холикова Зарнигор Камолиддин кизи	
Budjet tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlash	275
Abdurasulov Sardor To'liqin o'g'li	
Bank boshqaruvi va innovatsion iqtisodiyot: transformatsiya jarayonlari va rivojlanish istiqbollari.....	281
Hamroyev Xurshid Jalilovich	
Цифровая экономика и международная цифровая интеграция.....	284
Турапов Бахромжон Алишеревич	

Международно-правовые гарантии иностранных инвесторов в транспортной инфраструктуре: проблемы и перспективы	287
Алишера Эзоа	
Jon Meynard Keynsning ilmiy qarashlarida aholi bandligini ta'minlash istiqbollari	291
M.E.Rajabboyev	
Xalqaro tajribada logistika zanjiri uzluksizligini ta'minlash strategiyalari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi.....	294
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirish bo'yicha nazariy qarashlar	297
G'aniyev Axrorjon Norboy o'g'li	
Budjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini kengaytirishning amaliy jihatlari	300
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
Совершенствование бухгалтерского учёта и внутреннего аудита доходов и расходов в коммерческих банках.....	303
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
Soliq yukining optimallasuvi va uning korxonalar rivojlanishiga ta'siri	308
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	311
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	

UNIVERSITETLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Email: s.mirzaliyev@tsue.uz

ORCID: 0000-0002-9416-0253

Annotatsiya: Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari, ularning innovatsion jarayonlarni tashkil etishdagi roli hamda boshqaruv samaradorligiga ta'siri kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni boshqarishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va bulutli texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli platformalar asosida integratsiyalashgan boshqaruv tizimini joriy etish innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, raqamli platformalar, universitet, boshqaruv mexanizmlari, startaplar, texnologiyalar transferi, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, innovatsion ekotizim.

Abstract: In the context of the modern digital economy, the effective management of innovation activities is becoming increasingly important. This article analyzes the mechanisms for improving the management of innovation activities in universities through digital platforms. The functional capabilities of digital platforms, their role in organizing innovation processes, and their impact on management efficiency are examined using a comprehensive approach. In addition, the importance of artificial intelligence, big data, and cloud technologies in managing innovation activities is substantiated. The research findings demonstrate that the implementation of an integrated management system based on digital platforms enhances the effectiveness of innovation activities.

Key words: innovation activity, digital platforms, university, management mechanisms, startups, technology transfer, artificial intelligence, big data, innovation ecosystem.

Аннотация: В условиях современной цифровой экономики эффективное управление инновационной деятельностью приобретает особую значимость. В данной статье анализируются механизмы совершенствования управления инновационной деятельностью в университетах на основе цифровых платформ. Рассматриваются функциональные возможности цифровых платформ, их роль в организации инновационных процессов и влияние на эффективность управления с применением комплексного подхода. Также обоснована значимость использования искусственного интеллекта, больших данных и облачных технологий в управлении инновационной деятельностью. Результаты исследования показывают, что внедрение интегрированной системы управления на базе цифровых платформ способствует повышению эффективности инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационная деятельность, цифровые платформы, университет, механизмы управления, стартапы, трансфер технологий, искусственный интеллект, большие данные, инновационная экосистема.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida bilimlar iqtisodiyoti va raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim tizimining rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va tijoratlashtirish jarayonlarida universitetlarning roli tobora ortib borayotgani, ularni nafaqat ta'lim beruvchi, balki ilmiy-tadqiqot va innovatsion markazlar sifatida shakllanishini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, universitetlarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli platformalar bugungi kunda innovatsion jarayonlarni boshqarishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ular orqali ilmiy ishlanmalarni monitoring qilish, startap loyihalarni rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash hamda ishtirokchilar o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va bulutli texnologiyalar asosida ishlovchi platformalar innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, universitetlarda innovatsion faoliyatni boshqarishda zamonaviy raqamli yechimlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani bilan izohlanadi, ikkinchi tomondan esa, mavjud boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilish darajasini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Raqamli platformalar asosida integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini shakllantirish innovatsion jarayonlarning shaffofligi, tezkorligi va natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni raqamlashtirish orqali universitet–sanoat–davlat hamkorligini mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda talabalar va yosh tadqiqotchilarning innovatsion faolligini rag'batlantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Innovatsion faoliyat o'z ichiga ilmiy-tadqiqot ishlari, startap loyihalar, texnologiyalar transferi, intellektual mulk obyektlarini yaratish va tijoratlashtirish kabi ko'p bosqichli jarayonlarni qamrab oladi. Mazkur jarayonlarning samarali boshqaruvi esa an'anaviy usullardan ko'ra ko'proq raqamli platformalarga asoslangan integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi.

Raqamli platformalar innovatsion faoliyatni boshqarishda kompleks tizim sifatida xizmat qilib, barcha ishtirokchilar – talabalar, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, investorlar va sanoat vakillari o'rtasida yagona axborot maydonini yaratadi. Ushbu platformalar orqali innovatsion loyihalar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi. Ayniqsa, real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari innovatsion loyihalarning bajarilish bosqichlarini kuzatish va samaradorligini baholash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni boshqarishda raqamli platformalarning afzalliklari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Axborotlarning markazlashuvi va shaffofligi. Barcha innovatsion loyihalar, grantlar, ilmiy ishlanmalar va ularning natijalari yagona bazada jamlanadi, bu esa boshqaruvning ochiqqligini ta'minlaydi.
2. Resurslardan samarali foydalanish. Platformalar orqali moliyaviy, moddiy va inson resurslari optimal taqsimlanadi.
3. Monitoring va baholash tizimining takomillashuvi. Innovatsion faoliyat natijalari aniq indikatorlar asosida baholanadi.
4. Hamkorlik aloqalarining kengayishi. Universitet–sanoat–davlat o'rtasidagi integratsiya kuchayadi.

Innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonida raqamli platformalar turli funksional modullardan iborat bo'ladi. Ularning asosiy komponentlari quyidagilar hisoblanadi: loyiha boshqaruvi moduli, ilmiy tadqiqotlar bazasi, grant va moliyalashtirish tizimi, startap inkubatsiya platformasi hamda natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlari. Ushbu modullar o'zaro integratsiyalashgan holda ishlashi natijasida yagona boshqaruv ekotizimi shakllanadi (1-jadval).

1-jadval. Universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish tizimining asosiy komponentlari va ularning funksional vazifalari¹

№	Komponent nomi	Asosiy funksiyalari	Amaliy ahamiyati
1	Loyiha boshqaruvi moduli	Innovatsion loyihalarni ro'yxatga olish, rejalashtirish, bosqichma-bosqich monitoring qilish	Loyihalarning samarali boshqaruvi va muddatida bajarilishini ta'minlaydi
2	Ilmiy tadqiqotlar bazasi	Ilmiy ishlanmalar, maqolalar, patentlar va natijalarni saqlash va tizimlashtirish	Axborotlar bazasini shakllantiradi va ilmiy faoliyatni integratsiyalash imkonini beradi

¹ Manba: muallif ishlanmasi

3	Grant va moliyalashtirish tizimi	Moliyaviy resurslarni jalb qilish, grantlar taqsimoti va nazoratini yuritish	Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi
4	Startup inkubatsiya platformasi	Startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash, mentorlik va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish	Talabalar va tadqiqotchilar innovatsion faolligini oshiradi
5	Tijoratlashtirish moduli	Ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish, investorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish	Innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi
6	Monitoring va baholash tizimi	KPI va indikatorlar asosida innovatsion faoliyat natijalarini baholash	Boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi
7	Integratsiya va hamkorlik platformasi	Universitet–sanoat–davlat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish	Innovatsion ekotizimni shakllantiradi

Mazkur jadvalda keltirilgan komponentlar universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar asosida boshqarishning kompleks tizimini ifodalaydi. Har bir modul o'ziga xos funksiyani bajarishi bilan birga, o'zaro integratsiya orqali yagona boshqaruv mexanizmini shakllantiradi. Ayniqsa, loyiha boshqaruvi va monitoring tizimlari innovatsion jarayonlarning uzluksizligini ta'minlansa, grant va moliyalashtirish moduli resurslar samaradorligini oshiradi. Startup inkubatsiya va tijoratlashtirish komponentlari esa ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, integratsiya platformasi orqali turli subyektlar o'rtasida hamkorlik kuchayadi. Natijada, raqamli platformalar innovatsion faoliyatni tizimli, shaffof va yuqori samaradorlik asosida boshqarish imkonini beradi.

Raqamli platformalar asosida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning roli alohida ahamiyatga ega. Xususan, quyidagi texnologiyalar ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi:

- Sun'iy intellekt (AI) – loyihalarning istiqbolliligini prognoz qilish, risklarni aniqlash va qaror qabul qilishni optimallashtirish imkonini beradi;
- Katta ma'lumotlar (Big Data) – ilmiy tadqiqotlar natijalarini chuqur tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi;
- Bulutli texnologiyalar – ma'lumotlarga istalgan joydan kirish imkonini yaratib, platformalarning moslashuvchanligini oshiradi;
- Blokcheyn texnologiyasi – intellektual mulkni himoya qilish va tranzaksiyalarning ishonchligini ta'minlaydi.

Universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda institutsional yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda tashkiliy tuzilmani qayta ko'rib chiqish, maxsus innovatsion markazlar va texnoparklarni rivojlantirish, shuningdek, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy menejment usullarini joriy etish talab etiladi. Raqamli platformalar aynan ushbu institutsional o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini baholash uchun turli iqtisodiy va statistik ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Innovatsion loyihalar soni va ularning muvaffaqiyatli yakunlanish darajasi;
2. Tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar ulushi;
3. Jalb etilgan investitsiyalar hajmi;
4. Startaplar soni va ularning barqarorligi;
5. Ilmiy natijalardan olingan daromad miqdori.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida raqamli platformalarning samaradorligi baholanadi va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, platformalarning ishlash samaradorligi ularning foydalanuvchilar uchun qulayligi, interfeys soddaligi va integratsiya darajasiga ham bevosita bog'liqdir.

Universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamlashtirish jarayonida inson kapitalining o'zni ham alohida ahamiyatga ega. Raqamli platformalar bilan ishlash uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning raqamli kompetensiyalarini oshirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish;
- talabalar o'rtasida startap madaniyatini rivojlantirish;
- ilmiy tadqiqotchilar uchun zamonaviy texnologiyalar asosida treninglar tashkil etish.

Raqamli platformalar orqali innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonida ekotizim yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv universitetni mustaqil tizim sifatida emas, balki kengroq innovatsion

muhitning bir qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Natijada, universitetlar sanoat korxonalarini, investitsiya fondlari va davlat tashkilotlari bilan faol hamkorlik o‘rnatadi. Ushbu hamkorlik innovatsion mahsulotlar yaratish va ularni bozorga chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi.

Shuningdek, raqamli platformalar asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning yana bir muhim jihati – bu ma’lumotlar xavfsizligi va axborot himoyasidir. Platformalarda saqlanadigan ilmiy natijalar, texnologik ishlanmalar va tijorat sirlarini himoya qilish uchun zamonaviy kiberxavfsizlik choralarini qo‘llash zarur. Bu esa innovatsion faoliyatning barqarorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, universitetlarda innovatsion faoliyatni raqamli platformalar orqali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon texnologik, institutsional, iqtisodiy va inson kapitali omillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida amalga oshiriladi. Natijada, innovatsion faoliyat samaradorligi oshadi, ilmiy natijalarning amaliy ahamiyati kuchayadi va universitetlarning global raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

Umuman olganda, raqamli platformalar universitetlarda innovatsion faoliyatni boshqarishning zamonaviy va samarali vositasi sifatida shakllanib, ularning strategik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish esa innovatsion iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD. Digital Transformation of Higher Education. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 320 p.
2. World Bank. Higher Education and Digital Transformation. – Washington, DC: World Bank Publications, 2020. – 280 p.
3. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. – Brussels: European Commission, 2021. – 98 p.
4. J. W. Creswell. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2018. – 304 p.
5. M. Castells. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.
6. H. Kagermann, W. Wahlster, J. Helbig. Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0. – Frankfurt: acatech, 2013. – 82 p.
7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 50 p.
8. P. Drucker. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.
9. H. Etzkowitz, L. Leydesdorff. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. – New York: Routledge, 2000. – 160 p.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

